

**MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGLARNING
MAHORATINI OSHIRISH.**

Boymatova Anorxol Gulmurodovna

*Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi o'quv bo'limi uslubchi-metodisti*

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ko'plab ta'lim muassasalari yangidan qurildi, ta'mirlandi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo bu, ta'lim sifatini ta'minlash eng muhim o'rin tutadigan o'qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg'or axborot hamda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq muammolarda ko'rinmoqda. Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida pedagoglarning mahoratini oshirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, malaka oshirish, ta'lim, o'qituvchi, pedagogik yondashuv, ta'lim dasturlari.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalar uchun dolzarb bo'lib turgan ushbu jarayonni zamon talablariga mos ko'rinishda tashkil etish, o'qituvchi-pedagoglar sharoit yaratish maqsadida yangicha tartiblar ishlab chiqilishi lozim. "Malaka oshirish" termini mavjud tizimni ifodalovchi so'z sifatida qo'llanilib kelinsa, xalqaro tajribada "kasbiy rivojlanish" (professional development) ma'nosida qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli qarori 1-ilova bilan tasdiqlangan "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari" bilan malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllari amaliyotga kiritilishi belgilangan. Bilvosita malaka oshirish (ta'lim dasturlarisiz o'qitish)ning quyidagi ko'rinishlari: ilmiy (ilmiy-pedagogik) kengashning qarori bo'yicha ijodiy ta'til; ochiq o'quv mashg'ulotlari; ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlari va hokazolarda ma'ruzalar bilan qatnashish belgilangan. O'qituvchi malaka oshirishining boshqa shakllarini joriy qilishga malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini boshqaruvchilarning o'zlari qarshidek. Yaqindagina oliy ta'lim tizimida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish yoki tibbiyot tizimida malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar ham faqatgina tegishli

ta'lim tizimida muammolarni qisman yechishga qaratilgan bir tomonlama hujjat sifatida qabul qilinmoqda. Respublika ta'lim tizimida malaka oshirish sohasini tashkil etish va muvofiqlashtirish vazirlik va idoralar zimmasida bo'lib, barcha vazirlik va idoralarda mazkur tizimga nisbatan turlicha yondashuv mavjud. Respublika darajasida malaka oshirish tizimini metodik jihatdan muvofiqlashtiruvchi yagona tashkilot mavjud emas. Malaka oshirish tizimi uchun davlat talablari, o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirishga keltirish, xususiy va davlat sherikchiligidagi malaka oshirish va qayta tayyorlashga ixtisoslashgan muassasalarni tashkil etish vaqti kelmadimi? Barcha ta'lim turlarida faoliyat ko'rsatayotgan statsionar shakldagi malaka oshirish kurslarida reja asosida malaka oshirishdan voz kechib, o'qituvchilar o'zining kasbiy mahoratini oshirishdan manfaatdor bo'ladigan ta'limning kredit-modulli tizimiga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan modulli o'quv dasturlari, seminarlar, konferensiyalar, vebinarlar, mahorat darslari, treninglar, qo'shma xalqaro ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va xalqaro standartlarga muvofiq boshqa o'qitish kurslari negizida har yili malaka oshirishni ko'zda tutuvchi uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini joriy etish (masalan, Janubiy Koreyada har yili yozgi yoki qishki ta'vil davrida I darajali maktab o'qituvchisi sertifikatini olishi uchun 180 soatlik malaka oshirish dasturida qatnashishlari shart).

Barcha ta'lim turlari bo'yicha malaka oshirishdan navbatdagi malaka oshirish oralig'ida tarbiyachi, o'qituvchi, professor-o'qituvchi hamda rahbar xodimlar faoliyatini uzluksiz baholab borish maqsadida pedagog portfoliosini joriy qilish bo'yicha takomillashtirilgan tizimini joriy qilish;

ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlari, master klass va hokazolarda ma'ruzalar bilan qatnashganda, ishtirok etilgan vaqtlarni malaka oshirish sifatida qabul qilish bo'yicha tartib belgilash;

malaka oshirish davriyligi (3-5 yil) davomida seminar, konferensiya va boshqalarda ishtiroki natijasida to'planadigan soatlar miqdorini hisoblash mexanizmini joriy etish, agar to'plangan soatlar miqdori, malaka oshirish soatiga mutanosib bo'lsa, ushbu pedagoglarni malaka oshirishdan ozod etish va ularga malaka oshirganligi to'g'risida sertifikat berish bo'yicha masalaning yechimini topish. Faqatgina o'z ustida ishlamaydigan, ko'rsatkichlari past bo'lgan o'qituvchilarni statsionar malaka oshirish kurslariga jalb qilish mexanizmini yo'lga qo'yish;

malaka oshirish davriyligi mobaynida tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida dissertatsiya himoya qilganlarni, ikkita tayanch doktoranti yoki bitta doktoranti dissertatsiyasini himoya qilgan rahbar yoki maslahatchilarni malaka oshirishga jalb qilmasdan, malaka sertifikatini berish;

malaka oshirish davriyligi mobaynida, professor-o'qituvchi dars beradigan fani yo'nalishida xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqola (har yili bittadan) e'lon qilgan bo'lsa, malaka oshirishdan ozod qilish va malaka sertifikatini berish;

umumta'lim fanlari o'qituvchilari uchun qishki va yozgi ta'til davrilarida ta'lim muassasasining o'zida tajribali, mahoratli o'qituvchilarni jalb qilgan holda malaka oshirishlarini tashkil etish tartibini ishlab chiqish va joriy etish.

O'qituvchilar malaka oshirish yuzasidan rasmiy ta'lim boshqaruv tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan kreditli kurslarni o'tashi, kreditlar soni va dasturlar hukumat tomonidan ma'qullanadigan tizim yaratilishi kerak.

Bosh ilmiy metodik markazda o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tuzilganligi sababli, professor-o'qituvchilarning o'zi dars berayotgan fanidan malaka oshirishi muammosi mavjud. Ushbu tizimning asosiy kamchiligi aksariyat fanlardan dars beradigan professor-o'qituvchilar aynan o'zi dars beradigan fani bo'yicha yangi ma'lumotlarni malaka oshirgan paytda ololmaydi. Oliy ta'limda fanlar bo'yicha malaka oshirish yo'lga qo'yilmas ekan, ta'lim jarayonida tegishli samaraga erishib bo'lmaydi. Har bir fan bo'yicha malaka oshirish amaliyotga tatbiq etilganda, malaka oshirish bo'yicha fanlar sonini keskin oshib ketishini inobatga olgan holda hamda asosiy e'tibor dars berilayotgan fanga qaratilishi munosabati bilan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish muddati qisqartiriladi. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ishlab chiqarishda stajirovka o'tishlari, shu jumladan xorijiy davlatlarga yuborish yo'lga qo'yiladi. Professor-o'qituvchilarning ilmiy daraja va unvonlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan malaka oshirish tizimi joriy etiladi. Professor-o'qituvchilarning, nufuzli xorijiy jurnallardagi nashrlari, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishi, ilmiy konferensiya va seminarlarda ma'ruzalar bilan chiqishlarini malaka oshirish sifatida inobatga olish (muayyan soat berish) tizimi joriy etiladi. Bunda professor-o'qituvchi tomonidan har yili malaka oshirish bo'yicha jamg'argan soatlari miqdori ma'lum bir belgilangan (masalan, 144 soat) soatdan kam bo'lmaslik kerakligi (konferensiya va seminarlar va boshqalarda to'plagan soatlarini inobatga olgan holda) belgilanadi, ushbu soatlar to'planganda, professor-o'qituvchi navbatdagi malaka oshirishdan ozod qilinish mexanizmini joriy etiladi. A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida amaldagi malaka oshirish tizimi faqatgina boshqaruv xodimlarini o'qitishga asoslanib, maktab direktorlari menejer sifatida malakasini oshirib ketishmoqda. Buning oqibatida ertasini o'ylagan direktorlar o'z mutaxassisligi bo'yicha hududlardagi malaka oshirish markazlariga fan o'qituvchisi sifatida borib malakasini oshirishga majbur bo'lishmoqda. Bir kishiga 2-marta malaka oshirganligi uchun davlat mablag'i sarf bo'lmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida ularni menejer+mutaxassis sifatida o'qishlarini yo'lga qo'yish yoki menejer sifatida qisqa kurslarni tashkil etish lozim. Masofaviy malaka oshirish faqatgina birinchi marta an'anaviy malaka oshirish kursidan o'tolmaganlar uchun tashkil etilmasligi kerak. Afsuski, bugun shunday tizim amal qilmoqda. Masofaviy malaka oshirish tizimini

an'anaviy kurslar uchun ham tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki masofadan malaka oshirish tizimi ham malaka oshirishning muqobil variantlaridan biri hisoblanadi. Barcha statsionar malaka oshirish markazlari pedagogik faoliyati davomida tegishli kreditlarni jamlay olmagan, ta'lim sifatini ta'minlashda oqsoqlikka yo'l qo'ygan o'qituvchi-pedagoglar uchun majburiy kurslar sifatida qolishi lozim. Bu o'qituvchi-pedagoglar toifasi uchun yagona muvofiqlashtiruvchi tashkilot tomonidan kurs yakunida on-layn chiqish testini tashkil etish zarur. Umumta'lim fan o'qituvchilarining malakasini oshirish ishiga nodavlat ta'lim xizmatini ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan o'quv markazlari (ularga malaka oshirish va qayta tayyorlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha litsenziya berilgan) imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Buning uchun o'quv markazlari tegishli fan yo'nalishida o'qituvchilarni malakasini oshirganligi uchun sertifikat berishi, bu hujjatning tan olinishi mexanizmini ishlab chiqish lozim. Ularga masofadan o'qitish yuzasidan ham imkoniyat berish yoki masofadan ta'lim beradigan nodavlat tashkilotlarni ochishga imkoniyat yaratish kerak. Qisqa qilib aytganda, jahon tajribasi asosida xususiy va davlat sherikchiligidagi malaka oshirish va qayta tayyorlashga ixtisoslashgan muassasalarni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning maqsad va vazifalari:

O'quv-tarbiya jarayonini malakaviy talablarga muvofiq yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlash, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borish — pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining (keyingi o'rinlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari deb ataladi) maqsadi hisoblanadi.

7. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining asosiy vazifalari:

Pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko'nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish;

O'z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;

Ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni singdirish;

O'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash;

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borish ko'nikmalarini shakllantirish;

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining to'g'ridan to'g'ri shakllarini amaliyotga joriy etish;

Pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish;

Oliy ta'lim muassasalari kafedralarining maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tarkibida Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash ;

Buyurtmachi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Tasarrufida xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari;

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda vazirlik deb ataladi):

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga umumiy rahbarlik qiladi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Buyurtma asosida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarini Davlat budjetidan moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taklif kiritadi;

Keyingi kalendar yili uchun Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish kurslarini, oylar, malaka oshirish shakllari va o'qish yo'nalishlari bo'yicha buyurtmani shakllantiradi va tasdiqlaydi;

Hududiy markazlar tomonidan buyurtma bajarilishi yuzasidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv jarayonini takomillashtirish mexanizmlari va uslublarini belgilaydi, tegishli o'quv-me'yoriy va normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi;

Hududiy markazlarning axborot-resurs markazi va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralarini ko'radi;

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari bitiruvchilarining tayyorgarligi va kompetensiyasiga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlaydi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash:

Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o'quv-metodik bazasini shakllantirishni muvofiqlashtiradi va tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta'minlaydi;

Maktabgacha, umumiy o'rta hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarining ilmiy muammolariga yo'naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borilishini muvofiqlashtiradi;

Hududiy markazlarda dars beradigan professor-o'qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirib borish, o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislar, olimlar va o'qituvchilarni jalb etish ishlarini tashkil etadi;

Hududiy markazlar faoliyati natijadorligini muntazam o'rganib boradi va o'rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqadi;

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha hududiy markazlar rahbarlarining hisobotlari muhokamasini tashkil etadi, muhokama natijalari yuzasidan hududiy markazlar rahbarlari faoliyatiga baho beradi.

Xulosa:

Malaka oshirishning bilvosita shakllari pedagog kadrlarning navbatdagi malaka oshirish kursigacha bo'lgan davrda o'z ustida mustaqil ishlashi natijalarini baholash va uning kasbiy malaka darajasini aniqlashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagog kadrlarni malaka toifalariga attestatsiya qilish jarayonida hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2005.

3. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.